

kuni” ga bag’ishlangan tantanali marosimdagi “O’qituvchi va murabbiylar – yangi O’zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” nomli ma’ruzasida ta’kidlaganidek, “...Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir⁵⁹”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. O’qituvchi va murabbiylar – yangi O’zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr. Toshkent shahri.
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: “Ma’naviyat”, 2011. - 176 b.
3. Harakatlar Strategiyasi 2017–2021. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni. // Lex.uz. 2017.
4. Yangi O’zbekiston strategiyasi 2022-2026. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni. // Lex.uz. 2022.

MEDIA TILI MENTALLIGIGA LINGVOMADANIY YONDASHUV

O’g’iLOY MAMARAIMOVA

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mediamatnlarni aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan tadqiqi mentallik fenomenini keng ko’lamliligi ko’rish imkonini beradi. Zero, hozirgi vaqtda xalqaro va mahalliy gumanitar fanlarda insonning ma’naviy faolligi, uning dunyoni tushunishi va o’zlashtirishining asosini tashkil qiluvchi til haqidagi tasavvurlariga asoslangan til, nutq, matn uchligida aksiologik yondashuvni talab qilmoqda.

Kalit so’zlar: media, internet nashri, mentallik, ijtimoiy-siyosiy, sohaviy leksika, dunyo manzarasi, madaniy so’zlar.

Har bir davlat siyosati va jamiyat hayotida mentallik masalalari muhim rol o’ynaydi. O’zbekiston milliy ensiklopediyasida mentalitet tushunchasi ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma’naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki

⁵⁹ O’qituvchi va murabbiylar – yangi O’zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr. Toshkent shahri.

shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va b. bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi"⁶⁰ qabilida ta'riflangan. Mentallik tushunchasi mentalitet tushunchasi bilan sinonimik qatorni bildiradi.

“Katta ensiklopedik lug‘at”da ta'riflanishicha:

Mentalitet - mentallik – alohida bir inson yoki jamoa guruhiga tegishli bo'lgan fikrlash tarzi, aqliy ko'nikmalar va ma'naviyatga oid yo'l-yo'riqlar yig'indisi⁶¹.

2005 yilda chop etilgan «Новый словарь иностранных слов» lug'atida Mentalitet, mentallik [kech lotin tilidagi Mentalis - aqliy]:

1) alohida bir insonga yoki jamoaviy guruhga mansub bo'lgan fikrlash tarzi, umumiy aqliy ko'nikmalar va ma'naviy ko'rsatkmlar;

2) “millat psixologiyasi”⁶² deya ko'rsatilgan.

“Falsafaviy ensiklopedik lug‘ati”da mentallik tushunchasi quyidagicha izohlangan:

MENTALLIK (lotin tilidagi mentalis - aqliy) – insonning, insonlar guruhining fikrlash tarzi, umumiy ma'naviy xohish moyilligidir⁶³.

MENTALITET: Mentallik bilan bir xil. Shaxs yoki inson jamoasiga xos bo'lgan aqliy ko'nikmalar, ma'naviy munosabatlar va madaniy an'analar to'plami [NSMTP 2009, p. 301], T.V. Yegorov ham o'z lug'atida ushbu tushunchalar sinonim ekanligini ta'kidlaydi⁶⁴.

“Mentalitet – mentallik” – “har qanday kishilar jamoasi yoki guruhiga, ruhiy holatga xos bo'lgan ruhiy odatlar, e'tiqodlar, ruhiy munosabatlar yig'indisi”, “xulq-atvor namunalari, fikrlash, biror narsaga nisbatan mulohazalar, axloqiy munosabatlar, fikrlash tarzi”⁶⁵.

⁶⁰ QOMUS.INFO

⁶¹ Большой энциклопедический словарь / гл. ред. А.М. Прохоров. – М.: Большая Рос. энциклопедия. СПб.: Норинт, 1997. – С.77.

⁶² Новый словарь иностранных слов. – Минск, 2005. – С. 567.

⁶³ Философский энциклопедический словарь. – М., 2002. – С. 396.

⁶⁴ Егорова Т. В. Словарь иностранных слов русского языка. М.: Аделант, 2014. 799 с.

⁶⁵ Пушкирев Л. Н. Что такое менталитет? историогр. заметки // Отечественная история. – М., 1995. № 3. С. 158-166.

“Mentalitet – mentallik” – bu harakatdagi tizim bo‘lib, shu tariqa u tarix ob‘yekti sifatida qaralishi bilan barobar, uning barcha elementlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda ijtimoiy shakllanishni tashkil etuvchi turli guruhlar yoki qatlamlarda turli yo‘llar bilan birlashtirilgan, lekin har doim insonning dunyo va ularning bu dunyodagi o‘rni haqidagi g‘oyalari asosidagi odamlar, jamoalarning xatti-harakatlarini belgilaydigan tasvirlar, g‘oyalar tizimidir”⁶⁶.

Ko‘rib turganimizdek, mentallik – “ma‘lum madaniyatni (submadaniyatni) ifodalovchi, ma‘lum bir madaniyatga (submadaniyatga) xos bo‘lgan, tarixiy jihatdan hayotning iqtisodiy va siyosiy sharoitlari bilan belgilanadigan odamlarning ruhiy hayotining o‘ziga xosligi”⁶⁷ sifatida qaralar ekan tilshunoslikning o‘rganilish obyekti sifatida “mentallik – fikrlash va his qilish darajasini belgilovchi “axloqiy va kognitiv kod”dir.

Mentallikni til kategoriyalari turiga tegishli bo‘lishi asoslidir, chunki u eksplitsit morfologik ifodalarga ega bo‘lmagan, lekin fikrni tuzish va tushunish uchun aytarli darajada muhim bo‘lgan til birliklarining semantik belgilarini obyektivlashtiradi⁶⁸. A.A. Gvozdevaning aytishicha, til – bu bizdan yashiringan mentallik sferasiga kirishimizga yordam beradigan vositadir, chunki til u yoki boshqa madaniyatda dunyoni qismlarga bo‘lish usulini belgilaydi⁶⁹. Axir aynan til tafakkur, madaniyat, tarix bilan bog‘lanib, alohida millatning mentalitetini shakllantiradi.

Mentallikni til kategoriyasi sifatida tadqiqot qilishda tilning ma‘no, mohiyat, tushuncha, konsept, kategoriya singari ko‘rinishlari o‘rtasidagi murakkab korrelyatsiyalarni (o‘zaro bog‘langanliklari) hisobga olish kerak. Fikrlash va til mazmunini farqlab ajratish mahalliy tilshunoslikka an‘anaviy hisoblanadi. Anglashiladiki, har bir millat, xalq, jamiyat moddiy dunyo haqida o‘zining noyob

⁶⁶ Дюби Ж. Развитие исторических исследований во Франции после 1950 года // Одиссей. – М., 1991. – С. 49-60.

⁶⁷ Додонов Р.А. Этническая ментальность: опыт социально-философского исследования [Электронный ресурс] // Научные труды кафедры философии. URL: [http:// donntu.edu.ua/ russian/strukt/kafedrs/phil/works/i ndex.html](http://donntu.edu.ua/russian/strukt/kafedrs/phil/works/index.html)

⁶⁸ file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-kak-lingvisticheskaya-kategoriya%20(1).pdf

⁶⁹ Гвоздева А.А. Языковая картина мира: лингвокультурологические и гендерные особенности (на материале художественных произведений русскоязычных и англоязычных авторов): дис. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2003. – С.38.

tasavvurlariga egadir, va bu moddiy dunyo shu xalqning faoliyati va hayoti muhiti bo'lganligi sababli o'z mentalligi egadir.

Hozirgi vaqtda OAVda mentallik va uning media tiliga ta'siri yoki til orqali mentallikni namoyon qilish borasidagi tadqiqotlar sohasida yangi yo'nalish bo'lib, ushbu yo'nalish, ba'zi ekspertlarning fikriga ko'ra, alohida ilmiy va o'quv fanlariga aylanish salohiyatiga egadir. Publitsistika aksiologiyasi doirasida konseptual apparat ishlab chiqilishi tadqiqotga oid an'analarning boshlanishi, ammo lekin ushbu an'analari hali barqaror rivojlanish darajasiga yetmaganligi haqida guvohlik beradi.

D. M. Teshabayevaning fikricha: "Har qanday xalqning mentalitetining shakllanishi ko'plab omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Mentallik xalqqa xos xususiyat bo'lib, uning ruhiy holatini, hayotdagi mavqeini belgilaydi. Ommaviy axborot vositalariga nisbatan mentallikni, voqea-hodisaga baho berish va ma'lum an'analarga amal qilishda ma'lum stereotiplar tizimi sifatida qarash mumkin"⁷⁰. Zero, zamonaviy OAV tilining o'ziga xosligini, funksional va kommunikativ uslubiy xususiyatlari, milliy tillarda millatlararo sifatlarining OAV yordamida shakllanishi "turli mamlakatlarning turli madaniy an'analari, millat dunyoqarashi, madaniyat ildizlari va milliy mentaliteti bilan bog'liqligi ochib berildi"⁷¹.

Medialingvistikada mentallikning nazariy-uslubiy asoslari yetarli hisobga olinmaganligi uni turli jihatlariga ko'ra ko'rib chiqish imkonini beradi:

1. Mass-media tilining mentalitetga oid tadqiqotlari uslubi sifatida.
2. Jurnalistikani jamiyat mentalligining manbai, shakllantiruvchi va tarqatuvchisi sifatida ko'rib chiqilish usuli sifatida.
3. Yangi O'zbekiston axborot davriga mos bo'lgan medialingvistikaning yangi ijtimoiy nazariyasi sifatida.

⁷⁰ Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.д-ри. дисс. – Тошкент, 2012.

⁷¹ Тешабаева Д.М. Ментальность языка в медиапространстве. <file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-yazyka-v-mediaprostranstve.pdf>;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Большой энциклопедический словарь / гл. ред. А.М. Прохоров. – М.: Большая Рос. энциклопедия. СПб.: Норинт, 1997.
2. Егорова Т. В. Словарь иностранных слов русского языка. М.: Аделант, 2014. 799 с.
3. Пушкарев Л.Н. Что такое менталитет? // Отечественная история. – М., 1995. № 3. С. 158-166.
4. Дюби Ж. Развитие исторических исследований во Франции после 1950 года // Одиссей. – М., 1991.
5. Додонов Р.А. Этническая ментальность: опыт социально-философского исследования [Электронный ресурс] // Научные труды кафедры философии. URL: [http:// donntu.edu.ua/ russian/strukt/kafedrs/phil/works/i ndex.html](http://donntu.edu.ua/russian/strukt/kafedrs/phil/works/index.html)
6. Гвоздева А.А. Языковая картина мира: лингвокультурологические и гендерные особенности (на материале художественных произведений русскоязычных и англоязычных авторов): дис. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2003.
7. Тешабаева Д.М. Ментальность языка в медиaprостранстве.<file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-yazyka-v-mediaprostranstve.pdf>

IJTIMOIIY-SIYOSIY MATNLARDA MENTALLIKNING VOQEALANISHI

O'g'ily MAMARAIMOVA

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida mediamakonda axborotning verbal ifodasi hamda dunyoda sodir bo'layotgan voqea hodisalari yoritishda tilning cheksiz imkoniyatlarini o'rganish ko'plab sabablarga ko'ra dolzarb va muhim bo'lib bormoqda. Bu turli media maydonlarda barcha turdagi axborotlarni tarqatish kommunikativ jarayon sifatida baholanishi bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: media, internet nashri, mentallik, ijtimoiy-siyosiy, sohaviy leksika, dunyo manzarasi, madaniy so'zlar.

Media tili ommaviy axborot vositalari vazifalaridan kelib chiqib jamoatchilikka ta'sir qilish, asosli qarorlar qabul qilish va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish imkonini beradi hamda jamoatchilik fikri, stereotiplar, g'oyalar va qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Media tilining mental jihatlarini tadqiqi muayyan mamlakat yoki mintaqaviy qadriyatlar, an'analar va ijtimoiy jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam